

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University

5/2025

E-ISSN 2181-1466



9 772181 146004

ISSN 2181-6875



9 772181 687004



@buxdu_uz



@buxdu1



@buxdu1



www.buxdu.uz

5/2025

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI
SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА

Ilmiy-nazariy jurnal

2025, № 5, may

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo'yicha, **tarix** fanlari bo'yicha 2023-yil 29-avgustdan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.

Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinbosari: Rasulov To'liqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Mas'ul kotib: Shirinova Mexrigiyo Shokirovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Mordova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

Danova M., filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

Margianti S.E., iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

Minin V.V., kimyo fanlari doktori (Rossiya)

Tashqarayev R.A., texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

Mo'minov M.E., fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor

Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Abuzalova Mexriniso Kadirovna, filologiya fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Baqoyeva Muhabbat Qayumovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich, biologiya fanlari doktori, professor

Jumayev Rustam G'aniyevich, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

Djurayev Davron Raxmonovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Umarov Baqo Bafoyevich, kimyo fanlari doktori, professor

Murodov G'ayrat Nekovich, filologiya fanlari doktori, professor

O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Ahmadovich, tarix fanlari doktori, professor

To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Rasulov Baxtiyor Mamajonovich, tarix fanlari doktori, professor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Quvvatova Dilrabo Habibovna, filologiya fanlari doktori, professor

Axmedova Shoira Nematovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bekova Nazora Jo'rayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Amonova Zilola Qodirovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Hamroyeva Shahlo Mirjonovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Nigmatova Lola Xamidovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Boboyev Feruz Sayfullayevich, tarix fanlari doktori

Jo'rayev Narzulla Qosimovich, siyosiy fanlar doktori, professor

Xolliyev Askar Ergashovich, biologiya fanlari doktori, professor

Artikova Hafiza To'ymurodovna, biologiya fanlari doktori, professor

Hayitov Shavkat Ahmadovich, filologiya fanlari doktori, professor

Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Ixtiyarova Gulnora Akmalovna, kimyo fanlari doktori, professor

Rasulov Zubaydullo Izomovich, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Mirzayev Shavkat Mustaqimovich, texnika fanlari doktori, professor

Samiyev Kamoliddin A'zamovich, texnika fanlari doktori, dotsent

Esanov Husniddin Qurbonovich, biologiya fanlari doktori, dotsent

Zaripov Gulmurot Toxirovich, texnika fanlari nomzodi, professor

Jumayev Jura, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

Klichev Qybek Abdurasulovich, tarix fanlari doktori, dotsent

G'aybulayeva Nafisa Izattullayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

MUNDARIJA * СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS**

ADABIYOTSHUNOSLIK * LITERARY CRITICISM *** ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ**

Аминова М.Д., Хусанова С.Х.	Вечные темы в поэзии А.А.Ахматовой разных периодов творчества	4
Shahobova S.B., Khallieva G.I.	Similarities and differences in the works of Abdullah Qahhor and O. Henry	10
G'aniyeva O.X., Ashurova N.A.	"MR. Potter" romanida bilvosita xarakterlash va uning badiiy-estetik vazifasi	14
Atamurodova F.T.	Origin of the novel in european literature	19
Barotova M.B.	Sinkretizmning adabiy tamoyil sifatida qo'llanishi	23
Berdiyeva S.U.	"Shum bola" asarida milliy yumorning ifodalanishi va uning ingliz tilidagi tarjimada adekvatligi	27
Ilkhomova U.Dj.	The influence of feminist literature on teachers' portraits: a comparative analysis of "The color purple" and "Diary of the freedom writers"	31
Jurayeva I.A., Po'lotova G.M.	Sofoklning "Shoh Edip" asarida delakunizatsiya	35
Ochilov U.S.	Magical realism and memory in Salman Rushdie's «Victory city»	39
Qudratova S.O.	The concept of loneliness in "Why i live at the p.o." by Eudora Welty	43
Raxmatova S.O., Ro'zigul S.Q.	O'tkir Hoshimov asarlarining rus tiliga tarjimasida milliy mentalitet va madaniy realiyalarning ifoda topishi	47
Sadikova D.N.	Den Braunning "Farishtalar va iblislar"("Angels and demons") asaridagi ramzlarning intertekstual tahlili	51
Ochilov U.S.	Fear and imagination in american children's and horror literature	56
Safarova Z.K., Isroilov D.S.	Amirqul Po'ltan asarlarida milliy g'oyalarning ifodalanishi	64
Saidova Sh.Sh., Kilicheva M.R.,	The representation of historical lexicon in the english translation of "Yulduzli tunlar" (starry nights)	68
Salimova H.H.	The representation of the mother figure and national identity in Abdulla Qodiriy's novels	72
Sharipova D.Sh.	Specific characteristics and aspects of symbols in literature	78
Sharipova M.B.	"Qiz tanlash" va "Unashtirish" marosimining "Alpomish" dostonidagi badiiy talqini	85
Temirova Dj.Kh.	Typological convergence of plot-image systems in russian and uzbek children's game folklore	89
Xalimova N.N.	Sharq va g'arb romanchiligi: O'rta Osiyo va Yevropa adabiyotida tasvir va talqin	99
Yuldosheva M.A.	XX asr 30 -yillar o'zbek matbuotining asosiy tamoyillari	103
Адилова Д.К.	Отличительные особенности женских образов в русской узбекской литературе	107
Amanullaeva K.M., Alizhonova O.A.	Concept and conceptosphere problems and artistic concept in the text structure	112

Боймуродов Б.Қ.	Таҳлили ғоявии ашъори зулфия	116
Кенджаева Г.В., Убайдуллаева Ф.Е.	Самопожертвование как главная тема в рассказах О. Генри	121
Норқўчқоров Ф.Ш.	Ринди Ҳофиз ва аҳамияти он	124
Темирова Д.Қ.	Природа и символизм: как харди использует природный мир в тесс из рода Д’Эрбервиллей»	129
Боймуродов Б.Қ.	Инъикоси таърих дар ашъори асад Гулзодаи Бухорой	133
Холматов М.О.	Танқиди руҳониёни давр дар ғазалиёти Ҳофизии Шерозӣ	137
Чориёрова Н.Т., Хусанова С.Х.	Художественный мир Марины Цветаевой	142
Файзуллаева Р.А.	Муҳаммад Расул Мирзо девонининг жанрий таркиби	148
Холматов М.О.	Корбурди санъати муболиға дар достони “Рустам ва Сўҳроб”-и Абулқосими Фирдавсӣ	153
Avazova L.B.	Harold Lambning "Babur the tiger" va Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" asarlaridagi tarixiy va badiiy o‘xshashliklar	158
Bozorova U.Q.	A.S. Pushkin asarlaridagi xorijiy kiritmalar tavsifi	163
Гаффарова О.Б.	Гендерная тема в современной женской драматургии (Я. Пулинович О.Мухина и др.)	167
Рахимова М.Ш.	Тема «маленького человека» в произведении Л. Улицкой «Народ избранный»	171
MATNSHUNOSLIK VA MANBASHUNOSLIK *** TEXTOLGY AND LITERARY SOURCE STUDY *** ТЕКСТОЛОГИЯ И ЛИТЕРАТУРНОЕ ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ		
Kalandarova F.A.	“Daxmai shohon”ning nusxalari va ularning o‘rganilishi	175
JURNALISTIKA *** JOURNALISM*** ЖУРНАЛИСТИКА		
Marziyaev J.K.	Mediada ekologik mavzularni yoritishning nazariy-metodologik tahlili	181
Askarova M.G‘.	Mahalliy “Bolajon” va “Aqlvoy” telekanallaridan efirga uzatilgan multfilmlarda ijtimoiy muhandislikning o‘rni	185
NAVOIY GULSHANI		
Amonova Z.Q., Asxatova D.A.	Aytib malak ichra darsi himmat	189
Olimova D.K.	Fayz shahristoni sayrig‘a topar darvoza ruh	192
TARIX *** HISTORY *** ИСТОРИЯ		
Shukurillayev Y.A.	Amir Nasrulloxon davridagi “Buxoro davlatining harbiy nizomi” – amirlikning harbiy tarixiga oid muhim manba	194
Beshimov M.K.	Munzim ijodida adolat va ma’rifatparvarlik g’oyalari	200
Bo‘stonova Z.B.	Buxoro vohasi xorijiy sayyohlar nigohida	204
Buriyev Z.T.	XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida turkiston o‘lkasining boshqaruv siyosati va uning mohiyati	209

Narziyeva M.A.	Turkistonda faoliyat yuritgan qishloq xo'jalik maktablari tarixidan (XIX asr oxiri – XX asr boshlari)	214
Orunbayev A.	1908-yilgi saylovlar doirasida ittihad va taraqqiyot jamiyatining siyosiy dasturi	219
Shukurillayev Y.A.	Buxoro amirligi qo'shbegisi kanselyariyasi fondi hujjatlari – amirlikning qo'shin va harbiy ishiga oid muhim manba	227
Rajabov O.I.	Bahovuddin Naqshbandning ma'naviy-ilmiy merosi xorijiy tadqiqotchilar talqinida	234
Rizayev B.N.	The soviet collectivization project	238
Sayfullayev B.D.	O'zbekiston va Hindiston o'rtasidagi madaniy munosabatlar: adabiy aloqalar misolida	244
Sharopov D.R.	XVIII – XIX asrlarda Buxoro amirligi savdo majmualarining xalqaro tijoratdagi o'rni	248
Asadov M.O'.	Nogironligi bo'lgan kishilar orasida jismoniy madaniyat va sportning rivojlanish tarixi	252
Эргашев Ж.Ю., Тоҳирова М.Т.	Қоракўл териси савдоси ва унинг минтақавий ҳамда халқаро бозорлардаги ўрни	256
FALSAFA VA HUQUQ, SIYOSATSHUNOSLIK *** PHILOSOPHY, LAW AND POLITICAL SCIENCES *** ФИЛОСОФИЯ, ПРАВО И ПОЛИТОЛОГИЯ		
Abdurakhimov H.S.	O'zbekiston va Avstriya respublikalari o'rtasidagi diplomatik va iqtisodiy hamkorlikning huquqiy asoslari o'rnatilishi	262
Sotvoldiyev J.S.	Markaziy Osiyo xavfsizligini ta'minlashda O'zbekistonning konstruktiv diplomatik yondashuvi	268
Давлатова С.Т.	Ўзбекистон ва Корея: миллатлараро муносабатларда янги стратегик кадам	272
Мехмет Э.Т., Алиева Т.	Туризм как фактор «мягкой силы» во внешней политике: на примере Турции и Узбекистана	278
Найимов О.М.	Кўп томонлама дипломатиянинг нуфузли минбари: парламентлараро иттифок ва сиёсий мулоқот	284
IQTISOD *** ECONOMY *** ЭКОНОМИКА		
Niyozov A.Q.	Inflyatsiya darajasi eng yuqori bo'lgan mamlakatlar — tarix va bugun	289
PEDAGOGIKA *** PEDAGOGY *** ПЕДАГОГИКА		
Nazarov S.Sh.	A comparative study of the structural-semantic features of english and uzbek word combinations	294
SAN'AT *** ART *** ИСКУССТВОВЕДЕНИЕ		
To'ychiyeva S.S.	Boqiy qadriyatlar beshigi	298

BAHOVUDDIN NAQSHBANDNING MA'NAVY-ILMIY MEROSI XORIJIY TADQIQOTCHILAR TALQINIDA

Rajabov Oybek Iskandarovich,

Buxoro davlat universiteti arxeologiya va

Buxoro tarixi kafedrasida katta o'qituvchisi

rajabovo78@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Buxoroyi sharifning islom olamidagi buyuk vakillaridan biri Bahouddin Naqshbandning ma'naviy merosini Sharq va G'arb mamlakatlarining olimlari, siyosiy sayyoh mualliflari tomonidan o'rganilgan va bir qator asarlar yaratilgan. Ushbu asarlarda Buxoro amirligidagi diniy qarashlar, so'fiylik tariqatining mohiyati va xususiyatlari tasvirlangan. Manbalarda Buxoro amirligiga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlarning Bahouddin Naqshband muqaddas qadamjosiga tashrif buyurganligi, maskandagi tarixiy obyektlarni ko'zdan kechirganligi, mazkur ta'limotning amirlikdagi ma'naviy ta'siri va mahalliy aholiga bo'lgan ahamiyatini ochib berganligi to'g'risidagi ma'lumotlar borasida fikr-mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: Buxoroyi sharif, masjid, madrasa, tasavvuf, Bahouddin Naqshband, muqaddas qadamjo, tarixiy majmua, sufiylik, tarixiy obyekt.

ДУХОВНОЕ И НАУЧНОЕ НАСЛЕДИЕ БАХАВУДДИНА НАКШБАНДА ИНТЕРПРЕТИРОВАНО ЗАРУБЕЖНЫМИ ИССЛЕДОВАТЕЛЯМИ

Аннотация. В этой статье духовное наследие одного из великих представителей Бухарского Шарифа в исламском мире Бахауддина Накиббанда было изучено учеными, политическими туристами из стран Востока и Запада, и был создан ряд работ. В этих произведениях описываются религиозные взгляды в Бухарском эмирате, сущность и особенности секты суфизма. В источниках приводятся отзывы иностранных туристов, посетивших Бухарский эмират, о посещении священного места Бахауддина Накиббанда, осмотр исторических объектов на месте, о духовном влиянии этого учения в эмирате и его значении для местного населения.

Ключевые слова: Бухара Шариф, мечеть, медресе, суфизм, Бахауддин Накиббанд, священное место, исторический комплекс, суфизм, исторический объект.

THE SPIRITUAL AND SCIENTIFIC HERITAGE OF BAHAVUDDIN NAKSHBAND AS INTERPRETED BY FOREIGN RESEARCHERS

Abstract. In this article, the spiritual legacy of one of the great representatives of the Bukharian Sharif in the Islamic world, Bahauddin Naqshband, was studied by scientists and political tourists from the East and West, and a number of works were created. These works describe religious views in the Emirate of Bukhara, the essence and features of the sect of Sufism. The sources provide reviews from foreign tourists who visited the Emirate of Bukhara, about visiting the sacred site of Bahauddin Naqshband, visiting historical sites on site, about the spiritual influence of this teaching in the emirate and its significance for the local population.

Keywords: Bukhara Sharif, mosque, madrasa, Sufism, Bahouddin Naqshband, holy shrine, historical complex, Sufism, historical object.

Kirish. Qadimgi Buxoroyi sharif tarixi ming yilliklarga borib taqaluvchi, Movarounnahr uzra islom nurini baland sochgan, ilm-fan, din, madaniyat va ma'rifat markazi bo'lib kelgan makonlardan biri hisoblanadi. Qubbatul Islom unvoniga sazovor bo'lgan ko'hna Buxoro zaminida ilm-fan peshvolari dunyoga kelgan. Bu tabarruk diyor o'rta asrlarda ilm maskani sifatida dovrug'i jahonga taraldi, vohada masjиду madrasalar barpo etilib, diniy urfon, dunyoviy ilmlar o'rganila boshlandi. Buxoro asrlar davomida tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'lib, voha tarixi, muqaddas qadamjolar bilan bog'liq yozma manbalarni o'rganish yo'nalishidagi tadqiqotlar mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan amalga oshirildi.

Asosiy qism. "Naqshbandiya" ta'limoti, Markaziy Osiyo, xususan, Buxoro amirligida musulmon jamiyatlarining ma'naviy va madaniy rivojlanishida muhim rol o'ynagan eng nufuzli so'fiylik tariqatlaridan biri bo'lib, ushbu ta'limotning asoschisi Bahouddin Naqshbandiy o'z ilmiy falsafasi va hayotiy amaliyotlari orqali keng hududlarda diniy hamda ijtimoiy hayotga chuqur ta'sir ko'rsata olgan. Ushbu ta'limotning asoslari

bugungi kunda ham o'z ahamiyatini saqlab qolgan. XIX asrda Buxoro amirligi ushbu ta'limotning ta'siri hamda tarqalishida markaziy hududlardan biri bo'lib, uning ahamiyati ko'plab tadqiqotchilar va sayyohlarning e'tiborini tortgan.

Bahouddin Naqshbandiy ma'naviy merosini o'rganish uzoq tarixiy yo'lni bosib o'tgan bo'lib, bu jarayonda Sharq va G'arb mamlakatlarining olim, sayyoh (ko'pchiligi maxfiy josus) mualliflari tomonidan yaratilgan ko'plab asarlar paydo bo'ldi. Ushbu asarlarda Buxoro amirligidagi diniy qarashlar, so'fiylik tariqatining mohiyati va xususiyatlari tasvirlangan. Buxoro amirligiga tashrif buyurgan ingliz sayyohlarining Bahouddin Naqshband muqaddas qadamjosiga borganligi, maskandagi tarixiy obyektlarni ko'zdan kechirganligi, mazkur ta'limotning amirlikdagi ma'naviy ta'siri va mahalliy aholiga bo'lgan ahamiyatini ko'p marotaba ko'rganliklarini tasvirlab o'tgan. Ushbu sayyohlar orasiga quyidagi mualliflarni kiritish mumkin: Mir Izzatulla, Aleksandr Byorns, Jozef Volf, Arminiy Vamberi, Yujin Skayler va boshqalar.

Buxoro amirligida bo'lgan mazkur sayyohlar va ular tomonidan yozilgan tarixiy asarlarni xronologik tartibda ko'rib chiqilganda, amirlik davrida yozilgan ilk asarni, ya'ni sayohat yoki safar kundaligi deb Mir Izzatullaning "Ahvoli safari Buxoro" (Buxoro safarining holati) nomli asari deb atash mumkin. Mazkur asar muallif tomonidan 1812-1813-yillarda Buxoro amirligiga sayohat qilganidan so'ng yozilgan. Mir Izzatulla Buyuk Britaniya vakillari orasidan Buxoro amirligiga ilk bor tashrif buyurgan shaxs bo'lib, u Bahouddin Naqshband muqaddas qadamjosining joylashuvi hamda uning amirlikdagi ma'naviy ahamiyati bo'yicha ma'lumotlarni o'z asarida yoritgan: "Buxoro vohasi, uning atroflari ko'plab muqaddas manzilgohlar va avliyolarning qadamjolari bilan boy maskan. Ular orasida Said Amir Kulol va Xoja Bahouddin Naqshbandiylarning muqaddas qadamjolari (mozorlari) mavjud bo'lib, ikkinchisining joylashuvi Mozor darvozasi yo'nalishida, shahardan 4-5 mil (1 mill-1848 m.) masofada. Xoja Bahouddin Naqshbandiy mozori yoki qadamjosi oddiy bir qabr bo'lib, uning ustiga hech qanday binolar bunyod etilmagan. Qadamjoga borishda yo'l bo'ylarida bog'lar va qishloqlar joylashgan. Haftaning har chorshanba kunida, mazkur maskanda doimiy ravishda katta savdo yarmarkasi o'tkaziladi, unda savdogarlar tomonidan otlar, eshaklar tortib, har turli oziq-ovqat mahsulotlari savdoga qo'yiladi. Qadamjodagi qabristonning shimoliy g'arbida ochiq masjid mavjud bo'lib, amir Haydar (Buxoro amiri 1800-1826-yy) haftaning har chorshanba kunida ertalab piyoda Xoja Bahouddin Naqshbandiy mozoriga kelib, maskandagi o'tganlar haqqiga qur'on tilovat qiladi hamda aholiga xayriya (ehson) uchun mablag'lari tarqatadi, belgilangan marosim amallari tugagach amir otga minib, Buxoroga qaytadi [7, 61, 57–58, 66]. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan ma'lumotga asosan shuni aniq aytish mumkinki, Buxoro amirligi hukmdorlari ham buyuk so'fiyga hurmat ila uning ta'limotini Buxoroning ijtimoiy-ma'naviy hayotining asosiy an'anasiga aylantirganlar.

Xususan, Bahouddin Naqshbandning ta'limoti va uning Buxoro amirligi ma'naviy hayotidagi o'rni haqida qimmatli ma'lumot beruvchi asar sifatida Ost-Hind kompaniyasi ofitseri Aleksandr Byorns tomonidan 1834-yili Londonda nashr etilgan asarini ta'kidlash mumkin. Aleksandr Byorns asarining birinchi jildida muallifning Buxorodan Samarqandgacha bo'lgan masofadagi sayohati, buyuk sohibqiron Amir Temur davrida ya'ni XIV asrda mashhur bo'lgan Bahouddin Naqshbandiy dafn etilgan muqaddas qadamjoni ziyorat qilganligi haqida batavsil ma'lumotlar keltiriladi. Muallif shuni ta'kidlaydiki, mazkur mazorni (qadamjoni) ikki bora ziyorat qilish Makkaga borish bilan tenglashtiriladi.

Aleksandr Byorns muqaddas joyga safari va ushbu muqaddas manzilgohning xususiyatlari haqida batafsil ma'lumotlar keltirgan. Har hafta muqaddas joy yaqinida yarmarka o'tkazilgan hamda buxoroliklar piyoda, ot va eshaklarda kelib, muqaddas manzilgohga hurmat izhor etaganlar. Buxoro hukmdori amir Nasrulloh (1826-1860yy) taxtga o'tirishidan oldin ushbu muqaddas qadamjoga tashrif buyurib, mozor tepasida qasam ichib, agar u unga (ya'ni Bahouddin Naqshband amir Nasrulloga) yordam bersa, doimiy tarzda har hafta uning ziyoratiga kelib, yilda bir necha marotaba Buxorodan piyoda uning mazoriga boradigan bo'lishini va'da qilgan. Asarda muallif "Ulug' amir o'z so'zida turgan ko'rinadi: biz uning safarga olib ketilgan yuklarini ko'rdik, hamda o'sha yerda duo qilib, dam olishga qaror qildik" degan ma'lumotlarni keltiradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, Aleksandr Byornsning "Naqshbandiya" ta'limoti, Bahouddin Naqshbandiy va uning qabri joylashgan muqaddas maskan haqida keltirgan qimmatli ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, ushbu ta'limot va muqaddas joy nafaqat Buxoro amirligida, balki butun Osiyoda mashhur bo'lgan [1, 318–319]. Shu sababli ko'plab ziyoratchilar ushbu maskanni sayyoh sifatida ham ziyorat qilishgan. Bu vaziyatda Buxoro amirligi hukmdorlari va xalqi Xojaga katta hurmat bilan munosabatda bo'lib, ko'plab muammolarni hal qilishda va kundalik turmush masalalarida unga sodiq bo'lganlar. Bu ma'lumotlar buyuk so'fiy ta'limoti Buxoro amirligining ma'naviy va madaniy rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatganini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

Buxoro amirligi tarixi bo'yicha muhim manbalardan yana biri bu ingliz sayyohi Jozef Volfning asaridir. Unda Bahouddin Naqshbandiy haqida ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, u Buxoroni Islom dinining markazi sifatida mashhur qilgan buyuk shaxslardan biri sifatida ta'kidlangan. Jozef Volf qayd etganidek, Buxoroning

buyuk homiysi bir necha yuz yil oldin yashagan va darvishlarning tushuntirishicha, Allohga bo'lgan muhabbatdan mast bo'lgan Bahouddin Naqshbandiy Buxoro amirlari tomonidan yuqori darajada hurmatga sazovor bo'lgan. Qadamjoga doimiy ravishda ziyoratchilar tashrif buyurishadi, hatto Buxoro amiri bilan keskin adovatda bo'lgan Qunduz hukmdori ham har yili Buxorodagi Bahouddin Naqshbandiyga ro'zg'or ehtiyojlari uchun gurunch xayriya qilib yuboradi [6, 211].

1863-yilda musulmon turk ziyoratchisi, sayyohi sifatida Buxoro amirligiga tashrif buyurgan mashhur tarixchi, tilshunos, sharqshunos, sayyoh va sayohatchi Vengriyalik olim Armini Vamberi "Naqshbandiya" ta'limoti va Bahouddin Naqshbandiy muqaddas maskani haqida muhim ma'lumotlar taqdim etgan. Vamberi Buxoroga tashrif buyurib, so'fiy muallimlar bilan uchrashuvlari va Bahouddin Naqshbandiy maqbarasiga ziyorati haqidagi ma'lumotlarni yozgan. U "Naqshbandiya" ta'limotining mahalliy aholiga ma'naviy ta'sirini va uning diniy dunyoqarashni shakllantirishdagi o'rnini ta'kidlab o'tgan.

Armini Vamberi o'z asarida, Islom dini bo'yicha yaxshi bilimga ega mutaxassis sifatida, Bahouddin Naqshbandiy ta'limoti bilan bog'liq deyarli barcha narsalar haqida o'z kuzatuvlari va xulosalarini keltirgan. Xususan, muallif "Naqshbandiya" tariqatining darvishlari va qiroatchilari yig'iladigan joy haqida yozgan. U yerda Qur'oni karimdan oyatlar va hadislar nazm va nasr shaklida o'qilib, mashhur sarkarda va payg'ambarlar bilan bog'liq qahramonlik sahnalari namoyish etilgan. Nadir Devonbegi masjidi va xonaqohining ro'parasida joylashgan mazkur sahna Vamberini qattiq hayratga solgan va shu sababli u ta'limotni batafsil yoritishga harakat qilgan. U darvishlar rituallarining turli ko'rinishlariga guvoh bo'lib, "Naqshbandiya" tariqatining ko'plab vakillari bilan uchrashgandan keyin, ushbu tariqatning asosiy markazi Buxoro shahri ekanligi haqida qarorga kelgan [2, 173–174].

Armini Vamberi ma'lumotlariga ko'ra, Bahouddin Naqshbandiy asketizm (yunoncha aske- biror narsa bilan mashg'ul bo'lish, zohidlik, qanoat qilib yashash, moddiy boyliklardan imkon qadar kamroq foydalanish tuyg'usiga asoslangan g'oya) va muqaddas shaxs sifatida tanilib, "Naqshbandiya" diniy-so'fiy tariqatini asos solgan. Uning shogirdlari Hindiston, Xitoy, Eron, Arabiston va hatto Turkiyada ham uchraydi. Muallifning yozishicha, buyuk so'fiy muqaddas 1388-yilda vafot etgan. Uning xonaqohi, masjidi va qabri atrofida devor bilan o'ralgan butun bir mahalla 1490-yilda Abdulazizxon tomonidan qurilgan [2, 175]. Shu bilan birga, Vamberi keltirgan ayrim sana va yillar noto'g'ri bo'lib, batafsil tahlilni talab qiladi (aslida, Bahouddin Naqshbandiy 1389-yilda vafot etgan).

Vengriyalik sharqshunos shuni ta'kidlaydiki: "Bahouddin qishlog'i Buxorodan ikki liga (1 li - 4179,5 metrni tashkil etadi) masofada joylashgan bo'lib, bu yerda Bahouddin Naqshbandiyning qabri bor. U shu nomdagi tariqatning asoschisi va Sharq islomini G'arb islomidan farqlantiruvchi barcha diniy keskinliklarning boshlang'ich nuqtasi bo'lgan. Bu yerda tafsilotlarga kirmasdan, faqat shuni qayd etish joizki, Bahouddin Naqshband Turkistonning milliy muqaddas shaxsi sifatida hurmatga sazovor. Buxoroliklar qat'iy ishonaptiki, "Bahouddin balogardon!" (ya'ni, Bahouddin - baloni daf qiluvchi) deb nido qilish barcha musibatlardan xalos etadi. Bundan tashqari, eng uzoq Xitoy viloyatlaridan ham ziyoratchilar bu yerga kelib turadilar. Buxoroda muqaddas qadamjoga haftada bir marta u yerga borish urf bo'lib, shahar bilan aloqa jarayoni 300 ta eshak orqali amalga oshiriladi. Ular Mazor darvozasi (Darvozai Mazor) oldida turgan bo'lib, ma'lum miqdordagi mablag' (tanga) evaziga ijaraga olinadi".

Vamberi ziyorat maskani haqida katta hayrat bilan yozgan. Qadamjo haqida shunday ma'lumot beradi: qabir kichik bir bog' ichida joylashgan bo'lib, uning yonida masjid bor. Unga faqat ko'rlar va boshqa nogiron tilanchilar yashaydigan hovli orqali kirish mumkin. Ularning qattiq tinimsiz talabi Rim va Neapoldagi kasbdoshlari bilan ham taqqoslanishi mumkin. Qabir bosh qismida mashhur "Sengi Murad" (istak toshi) joylashgan. Ushbu toshni ziyorat qilgan solih ziyoratchilar peshonalari bilan tekkani uchun u biroz yemirilgan va egri turibdi. Shuningdek, qabrning ustida qo'y shoxlari, bayroq va uzoq vaqt davomida Makkadagi muqaddas joyni supurishda ishlatilgan supurgi yotadi.

Bu narsalarni bir necha bor tom ostiga olishga harakat qilishgan, ammo Bahouddin va Turkistonning boshqa avliyolari kabi, toza havoni afzal ko'rgan. Har qanday bino qurilganida, u tezda qulab tushgan. Bu haqda shayxlar - avliyoning avlodlari, o'z navbatida qabrni qo'riqlovchi bo'lganlari hikoya qilinadi. Ular ziyoratchilarga o'z ajdodlari "etti" raqami bilan o'ziga xos do'stlikda bo'lganini bemalol aytib berishadi. U etti oyligida dunyoga kelgan, etti yoshida Qur'onni yoddan bilgan va yetmish yoshida vafot etgan. Shu sababli uning qabri ustiga qo'yiladigan hadyalar va sovg'alar soni ham yettitadan iborat bo'lishi kerak, lekin ular kamida yettita bo'lishi shart. Ushbu hadyalar shayxning mulki hisoblanadi.

Amerikalik sayyoh va diplomat Yujin Skayler XIX asrning 70-yillarida Markaziy Osiyoga tashrifi davomida yozgan asarida Naqshbandi kabi so'fiy tariqatlarining Buxoro amirligidagi mahalliy aholi hayotiga ta'sirini tasvirlab bergan. U Bahouddin Naqshbandiy ta'limoti Buxoroning diniy hayotida asosiy o'rin tutganini va xalq orasida chuqur hurmatga sazovor bo'lganini qayd etgan. Bundan tashqari, muallif Turkiston va Buxoro bo'ylab qilgan sayohatlari haqidagi qaydlarida Bahouddin Naqshbandiy maqbarasining ziyorat va

HISTORY

ma'naviy yuksalish markazi sifatidagi ahamiyatini tilga olgan. Muallif, Bahouddin Naqshbandiy maqbarasi Buxoro shahridan taxminan 6 mil masofada joylashgan bo'lib, diniy faollik markazi bo'lganini va butun mintaqadan ziyoratchilarni o'ziga jalb etganini ta'kidlagan [5, 108, 113].

Xulosa qilib aytganda, milliy madaniyatimiz, qadriyatlarimiz, ma'naviy boy merosimizni tiklash va ularni chuqur o'rganish, uning mazmun-mohiyatini hamda ahamiyatini xalqimiz, yurtimizda yetishib chiqqan buyuk muhaddis, faqx, tasavvuf va mufassir allomalar merosini har tomonlama teran o'rganish, yuksak insoniy g'oyalar va muqaddas qadriyatlarimizni o'zida ifoda etgan manbalarni tadqiq etish, ulardan diniy ta'lim, ma'naviy-axloqiy tarbiyada foydalanish, yoshlar qalbida ular qoldirgan merosga bo'lgan muhabbat va e'zoz tuyg'usini shakllantirishdan iborat.

ADABIYOTLAR:

1. Alex Burnes. *Travels into Bokhara; Being the account of A Journey from India to Cabul, Tartary, Persia; Also, Narrative of A Voyage on the Indus, from the Sea to Lahore, with the present from the King of Great Britain: performed under the orders of the Supreme Government of India, in the years 1831, 1832, and 1833. In the three volumes. London: John Murray, Albemarle street. 1834. Volume 1, 356 pages.*
2. Arminius Vambery. *Travels in Central Asia. Being the account of a journey from Teheran across the Tukoman desert on the Easten shore of the Caspian to Khiva, Bokhara, and Samarcand. Performed in the year 1863. London John Murray. Albemarle street. 1864. 531 pages.*
3. Bahouddin Naqshband (1318-1389). *O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy Xalqaro Ilmiy-tadqiqot markazi. IBXITM - 2023. -B.15.*
4. Бобожонов Ш.У. *Феномен Бахауддина Накибанди в паломнической культуре населения Бухарского оазиса // Science problems.uz, Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук. No S/7(3)-2023. Ташкент, 2023.*
5. Eugene Schuyler. *Turkistan. Notes of a journey in Russian Turkistan, Khokand, Bukhara and Kuldja. New York: Scribner Armstrong & CO. 1877. In two volumes. Volume 2, 463 pages.*
6. *Researches and Missionary labours among the Jews, Mohammedans, and other sects, by Rev. Joseph Wolff. During his travels between the years 1831 and 1834, from Malta to Egypt, Constantinople, Armenia, Persia, Khorossaun, Toorkestaun, Bokhara, Balkh, Cabool in Affghanistaun, The Himmalayah mountains, Cashmeer, Hindostaun, the coast of Abys-Sinia, and Yemen. Published by the author, and sold by Mr. J. Nisbet, 21 Berners-street, Oxford street. London. 1835. 523 pages.*
7. *Travels in Central Asia by Meer Izzut-Oollah in the years 1812-13. Translated by Captain Henderson. Calcutta: Printed at the Foreign Department Press. 1872. 112 pages.*
8. Isroilov M.I. *Naqshbandiya ta'limotining tarbiyaviy ahamiyati // Yangi O'zbekistonning umidli yoshlari" 1(2)-SON, 2022.*